



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
e LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2



DADABOYEVA Jumagul Anvarovna

Farg'ona davlat universiteti

Maxsus huquqiy fanlar kafedrasini mudiri

E-mail: dadaboyevajumagul74@gmail.com

OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARGA VASIY VA HOMIY TAYINLASHDA QO'LLANILADIGAN MEZONLAR

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): DADABOYEVA J.A. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga vasiy va homiy tayinlashda qo'llaniladigan mezonlar // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 50-57.

 2 (2026) DOI <http://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-005>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga vasiy va homiy tayinlashda qo'llaniladigan huquqiy mezonlar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – vasiylik va homiylik institutini takomillashtirish, ushbu jarayonda bolaning manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash hamda amaldagi qonunchilikdagi mavjud muammolarni aniqlashdan iborat.

Maqolada milliy qonunchilik normalari, ilmiy yondashuvlar va huquqni qo'llash amaliyoti asosida vasiy va homiy tayinlash mezonlarining mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga, voyaga yetmagan shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, ularni amalga oshirishdagi huquqiy bo'shliqlar hamda amaliy muammolar tahlil qilingan.

Maqolada vasiylik va homiylik munosabatlarida mol-mulkni boshqarish tartibini aniq huquqiy tartibga solish zarurligi asoslab berildi hamda fuqarolik qonunchiligiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etildi.

Shuningdek, maqolada ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning mulkiy huquqlari tizimli ravishda tasniflanib, ularni tasarruf etilishi mumkin bo'lgan va shaxs bilan chambarchas bog'liq huquqlar sifatida ajratish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, vasiy va homiy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan aniq huquqiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: vasiylik va homiylik instituti, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, bolalar huquqlari himoyasi, bola manfaatlarini ustuvorligi, voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari, ijtimoiy himoya tizimi, fuqarolik-huquqiy tartibga solish, vasiy va homiy tayinlash mezonlari, huquqiy mexanizmlar, davlat kafolatlarini, mulk huquqi va mulkiy huquqlar, yetim bolalarni qo'llab-quvvatlash, huquqiy bo'shliqlar, qonunchilikni takomillashtirish.

ДАДАБОЕВА Жумагул Анваровна

Заведующий кафедрой специальных правовых

дисциплин Ферганского государственного университета

E-mail: dadaboyevajumagul74@gmail.com

КРИТЕРИИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ НАЗНАЧЕНИИ ОПЕКУНОВ И ПОПЕЧИТЕЛЕЙ ДЛЯ ДЕТЕЙ, ЛИШЕННЫХ РОДИТЕЛЬСКОЙ ОПЕКИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье комплексно анализируются правовые критерии, применяемые при назначении опекуна и попечителя для детей, оставшихся без попечения родителей. Основная цель статьи –

совершенствование института опеки и попечительства, обеспечение приоритета интересов ребенка в этом процессе, а также выявление существующих проблем в действующем законодательстве.

В статье раскрывается содержание критериев назначения опекуна и попечителя на основе норм национального законодательства, научных подходов и правоприменительной практики. Вместе с тем, проанализированы механизмы защиты имущественных прав несовершеннолетних, правовые пробелы в их реализации и практические проблемы.

В статье обоснована необходимость четкого правового регулирования порядка управления имуществом в отношениях опеки и попечительства, а также предложено внести соответствующие изменения и дополнения в гражданское законодательство.

Также в статье систематически классифицируются имущественные права детей, оставшихся без попечения родителей, и обосновывается необходимость их выделения как прав, которыми можно распоряжаться и которые тесно связаны с личностью. Также выдвинуты конкретные правовые предложения, направленные на совершенствование деятельности опекунов и попечителей.

Ключевые слова: институт опеки и попечительства, дети, лишённые родительской опеки, защита прав детей, приоритет интересов ребенка, имущественные права несовершеннолетних, система социальной защиты, гражданско-правовое регулирование, критерии назначения опекунов и попечителей, правовые механизмы, государственные гарантии, право собственности и имущественные права, поддержка детей-сирот, правовые пробелы, совершенствование законодательства.

JUMAGUL Dadaboeva

Head of the Department of Special Legal
Disciplines at Fergana State University
E-mail: dadaboyevajumagul74@gmail.com

CRITERIA USED IN THE APPOINTMENT OF CARE OF A GUARDIAN OR TRUSTEE FOR CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE

ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of the legal criteria applied when appointing guardians and trustees for children deprived of parental care. The main objective of the article is to improve the institution of guardianship and trusteeship, ensure the priority of the child's interests in this process, and identify existing problems in current legislation.

The article reveals the content of the criteria for appointing a guardian and trustee based on national legislative norms, scientific approaches, and law enforcement practice. At the same time, mechanisms for protecting the property rights of minors, legal gaps in their implementation, and practical problems are analyzed.

The article substantiated the need for clear legal regulation of property management procedures in guardianship and trusteeship relations and proposed introducing relevant amendments and additions to civil legislation.

The article also provides a systematic classification of the property rights of children deprived of parental care, justifying the need to distinguish them as rights that can be disposed of and are closely linked to the individual. Specific legal proposals aimed at improving the activities of guardians and trustees have also been put forward.

Key words: guardianship and trusteeship institution, children deprived of parental care, child rights protection, best interests of the child, property rights of minors, social protection system, civil law regulation, criteria for appointing guardians and trustees, legal mechanisms, state guarantees, property rights and ownership rights, support for orphaned children, legal gaps, improvement of legislation.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida inson kapitali, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning jismoniy va ma'naviy kamoloti, eng avvalo, sog'lom oila muhiti bilan bevosita bog'liq. Shu sababli davlat tomonidan oila institutini mustahkamlash, bolalar huquqlarini himoya qilish va ular uchun munosib sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, turli sabablarga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar taqdiriga befarq bo'lmaslik, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, bunday bolalarni himoya qilishda vasiy va homiy tayinlash instituti muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu jarayonda bolaning manfaatlari ustuvor hisoblanib, vasiy yoki homiyni tanlashda muayyan huquqiy va axloqiy mezonlarga amal qilish talab etiladi. Qonunchilikda belgilangan ushbu mezonlarni chuqur tahlil qilish va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llash, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xotin-qizlarning qadr-qimmatini joyiga qo'yish, farzandlarimizni himoya qilish – qadim-qadimdan erkaklar uchun sha'n va g'urur masalasi bo'lib kelgan. Lekin jamiyatimizda ayollar va bolalarning turli zo'raonliklarga uchrayotgani buyuk tarix, yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lgan, oilani muqaddas deb biladigan xalqimizga aslo yarashmaydi [1]".

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning mulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan huquqiy jihatdan kafolatlanadi hamda ularni himoya qilish alohida huquqiy mexanizmlar orqali ta'minlanadi. Voyaga yetmagan shaxslarning mulkiy huquqlari mazmun jihatidan keng qamrovli bo'lib, ular turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, bank muassasalaridagi omonat mablag'lari, ko'chmas mulkdan foydalanish orqali olinadigan daromadlar, shuningdek, ularni ta'minlash uchun ajratiladigan pul mablag'lari kabi manbalar mazkur huquqlarning tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, amaldagi huquqiy adabiyotlar va huquqni qo'llash amaliyotida mulk huquqi va mulkiy huquqlar o'rtasidagi nisbat masalasi yetarlicha tadqiq etilmagani kuzatiladi.

Ilmiy-huquqiy yondashuv nuqtayi nazaridan, mulk huquqi shaxsning mol-mulkka nisbatan egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish vakolatlarini ifoda etadi. Mulkiy huquqlar esa, asosan, majburiyat-huquqiy munosabatlar doirasida namoyon bo'lib, muayyan shaxsdan muayyan harakatni amalga oshirishni talab qilish huquqi sifatida talqin qilinadi. Mazkur ikki tushunchani aniq farqlash, ayniqsa, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlari samarali himoya qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Z.Amonovning ilmiy yondashuviga ko'ra, mulkiy huquqlar tushunchasi huquq subyektlariga tegishli bo'lgan turli moddiy va nomoddiy ne'matlarga nisbatan vujudga keladigan huquqlarni qamrab oladi. Ushbu huquqlar jumlasiga mol-mulk, ishlar va xizmatlar, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, shuningdek intellektual faoliyat natijalariga nisbatan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish vakolatlari, hamda muayyan obyektlarga nisbatan mulkiy talab qilish huquqi kiradi [2, B.10, 38]. Muallif mazkur huquqlarni mazmuniga ko'ra ashyoviy majburiyatlarga asoslangan va mutlaq huquqlar sifatida tasniflash mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, mulkiy huquqlar instituti ko'p hollarda mulk huquqidan alohida tarzda tadqiq etilgani sababli, voyaga yetmagan shaxslarga xos jihatlar yetarlicha yoritilmaganligi kuzatiladi.

S. B. Zubkovning fikricha esa, bolalarning mulkiy huquqlari tug'ilgan paytdan boshlab ularga tegishli bo'lgan ashyoviy va majburiyat huquqlarini, shuningdek meros, hadya va boshqa huquqiy asoslar orqali keyinchalik vujudga keladigan huquqlarni o'z ichiga oladi [3, B.71]. Mazkur yondashuv voyaga yetmagan shaxslarda mulkiy huquqlarning mavjudligini e'tirof etsa-da, zamonaviy sharoitda ularning intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquq egasi sifatidagi maqomi ham alohida

e'tiborni talab etadi. Shu ma'noda, bolalarning mulkiy huquqlari doirasi faqat an'anaviy ashyoviy va majburiyat huquqlari bilan cheklanib qolmay, balki intellektual mulk sohasidagi huquqlarni ham qamrab olishi lozim.

A.Serebryakova voyaga yetmagan shaxslar to'liq muomala layoqatiga ega emasligi sababli ularning huquqlari kuchaytirilgan tarzda himoya qilinishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mulkiy munosabatlarning rivojlanishi bolalarning mulkiy huquqlarini muhofaza qilish sohasida yangi yondashuv va mexanizmlarni joriy etishni taqozo etadi [4, B.109]. Chunki, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaning qonuniy vakillari sifatida uning mulkiy huquqlariga rioya etilishini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi. Biroq, faqat huquqlarni mustahkamlash bilan cheklanib qolmasdan, ularni amalga oshirish va samarali himoya qilishning institutsional kafolatlarini yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmagan shaxslarning mulkiy huquqlari tizimida turar joyga bo'lgan huquq alohida o'rin tutadi. Chunki har bir bola munosib yashash sharoitiga ega bo'lishi lozim. Shu munosabat bilan, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning turar joyga bo'lgan huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, bunday toifadagi bolalar turli muassasalarga yoki vasiylik va homiylikka joylashtirilganda, ularning avvalgi yashash joyi saqlab qolinishi kafolatlanadi. Bu esa ularning mulkiy huquqlarini himoya qilish va kelgusida ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-maydagi "Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 294-son qarori [5] yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks huquqiy mexanizmni belgilaydi. Qaror, avvalo, mazkur toifadagi bolalarga ajratiladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish va ulardan maqsadli foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, "Mehr daftari" jamg'armasi mablag'larini Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasiga o'tkazish orqali yagona moliyalashtirish tizimi joriy etilganligi bilan ahamiyatlidir.

Qaror mazmuniga ko'ra, ijtimoiy yordam ko'rsatishning zamonaviy va manzilli mexanizmi joriy etilgan bo'lib, u individual yondashuv tamoyiliga asoslanadi. Xususan, har bir bola uchun uning yoshi, ehtiyojlari va ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda individual rivojlanish yoki integratsiya rejaları ishlab chiqiladi va aynan shu rejalar asosida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi. Bu esa bolalarni standart usulda emas, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, hujjatda ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali yordamlarni tayinlash, monitoring qilish va moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilgan bo'lib, bu shaffoflikni ta'minlash, inson omilini kamaytirish hamda korrupsiyaviy xavflarni oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy yordamlarning ayrim turlari elektron savdo platformalari orqali amalga oshirilishi belgilangani mazkur sohada raqamli iqtisodiyot elementlarining joriy etilganligini ko'rsatadi.

Mazkur qarorning yana bir muhim jihati – ijtimoiy yordam turlarining keng qamrovli ekanligida namoyon bo'ladi. Unda ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, uy-joy sharoitlarini yaxshilash kabi yo'nalishlar bo'yicha kompleks yordam choralari nazarda tutilgan. Bu esa yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni nafaqat moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, balki ularni jamiyatga to'liq integratsiya qilish va mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan tizimli davlat siyosatini ifodalaydi.

G. Inamdjonovanning ilmiy qarashlariga ko'ra, aliment majburiyati ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo'lib, u nikoh shartnomasida nazarda tutilgan ta'minot shartlarini bajarishni ta'minlovchi majburiy huquqiy mexanizm sifatida talqin etiladi. Muallif mazkur yondashuv orqali aliment munosabatlarini shartnomaviy tartibga solish imkoniyatini ilgari suradi hamda uni nikoh shartnomasining alohida bo'limi sifatida ko'rib chiqadi [6, B.14-16].

Biroq mazkur nuqtayi nazarni qabul qilish bahsli hisoblanadi. Chunki nikoh shartnomasi, odatda, er-xotin o'rtasidagi mol-mulkiy munosabatlarni belgilashga qaratilgan bo'lib, u ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni to'liq qamrab olmaydi. Aliment majburiyati esa, avvalo, qonun normalariga asosan yuzaga keladigan mustaqil huquqiy majburiyat bo'lib, u voyaga yetmagan shaxsning mulkiy huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, aliment munosabatlarini faqat shartnomaviy mexanizm doirasida talqin qilish uning huquqiy tabiatini to'liq ochib bermaydi.

N. Ashurovaning ta'kidlashicha, voyaga yetmagan shaxslar huquq subyekti sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etar ekan, ularning muomala layoqati to'liq shakllanmaganligi sababli mazkur munosabatlar alohida huquqiy va protsessual tartibga solishni talab qiladi. Muallifning fikricha, voyaga yetmaganlar o'z huquq va qonuniy manfaatlarini mustaqil ravishda to'liq himoya qila olmasligi bois davlat tomonidan ularga nisbatan qo'shimcha kafolatlar belgilanishi zarur. Bu esa, amalda, konstitutsiyaviy jihatdan barcha fuqarolar uchun teng huquq va erkinliklar kafolatlangan bo'lsa-da, voyaga yetmaganlarning huquqlari ko'proq himoya mexanizmlariga muhtoj ekanligi bilan izohlanadi [7, B.11].

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar xorijiy davlatlar tajribasida voyaga yetmaganlarning muomala layoqati turlicha tartibga solinishini qayd etadilar. Xususan, R. Matkurbanov ushbu masalaga qiyosiy-huquqiy yondashuv asosida baho berib, davlatlarni uchta asosiy guruhga ajratadi: ayrim mamlakatlarda barcha voyaga yetmaganlar to'liq muomalaga layoqatsiz deb hisoblansa, boshqalarida ularning layoqati muayyan cheklovlar asosida belgilanadi, yana boshqa davlatlarda esa yoshga qarab tabaqalashtirilgan layoqat tizimi joriy etilgan. Bunday tasnif voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomini belgilashda milliy qonunchilikning o'ziga xos yondashuvlari mavjudligini ko'rsatadi [8, B.33].

Milliy qonunchilikka muvofiq, kichik yoshdagi bolalarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki ularning qonuniy vakillari orqali amalga oshiriladi. Xususan, fuqarolik qonunchiligida belgilanishicha, 14 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan tuzilgan bitimlar va yetkazilgan zarar uchun, odatda, ularning ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari mulkiy javobgar hisoblanadi. Bunda ushbu shaxslar o'z aybining yo'qligini isbotlay olmagan taqdirda javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Oila kodeksining 169-moddasiga muvofiq, farzandlikka olish munosabatlari sud tomonidan bolaning manfaatlari ustuvorligi tamoyili asosida ko'rib chiqiladi. Hatto farzandlikka oluvchining aybi mavjud bo'lmagan taqdirda ham, agar bola manfaatlariga zid holatlar aniqlansa, sud tomonidan farzandlikka olishni bekor qilishga yo'l qo'yiladi. Bunda, ayniqsa, bolaning fikrini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, farzandlikka oluvchi va bola o'rtasida psixologik nomutanosiblik, o'zaro moslashuvning qiyin kechishi, shuningdek, bolaning yangi oilani qabul qilmasligi kabi omillar ushbu munosabatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayrim hollarda bola ruhiy holatiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, nasliy yoki orttirilgan kasalliklar mavjudligi ham tarbiya jarayonini murakkablashtiradi.

Shu sababli, agar bola o'n yoshga to'lgan bo'lsa, uning fikri albatta hisobga olinishi shart. Sud qarorida farzandlikka olishni bekor qilish asoslari aniq va asoslantirilgan tarzda bayon etilishi lozim, chunki bunday qaror shaxsning oilaviy va fuqarolik huquqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka ko'ra, ilgari farzandlikka oluvchi bo'lgan shaxslar, agar ular o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan bo'lsa, ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilgan bo'lsa yoki bolaga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lgan bo'lsa, kelgusida vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emas. Xususan, surunkali alkogolizm yoki giyohvandlik kabi holatlar ham bunday shaxslarning ushbu maqomni egallashiga to'sqinlik qiladi [9, B.69].

Jamiyatda barcha bolalar teng sharoitda tarbiya topish imkoniyatiga ega emas. Ayrim hollarda bola o'z ota-onasi bilan yashash imkonidan mahrum bo'lib, uning parvarishi va tarbiyasi maxsus bolalar muassasalari yoki vasiy va homiylik zimmasiga yuklatiladi. Bunday sharoitlarda bolaga nisbatan qabul qilinadigan har qanday qarorlar uning manfaatlarini to'liq ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Shu bois muqobil parvarish shakllari ham oilaviy muhitga yaqin tizim sifatida e'tirof etilishi va bolalarning fikrini inobatga olish mexanizmlari mustahkamlanishi zarur.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, bola har qanday sud yoki ma'muriy muhokama jarayonida o'z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega. Xususan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun normalariga muvofiq, bola o'z manfaatlariga daxldor bo'lgan masalalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lib, uning fikri muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur huquq bolaning shaxsiy va mulkiy huquqlariga taalluqli bo'lgan turli masalalarni, jumladan, ajrashish, farzandlikka olish, familiya yoki ismni o'zgartirish, yashash joyini belgilash hamda ta'lim olish bilan bog'liq qarorlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, bola jinoyat, fuqarolik va ma'muriy ishlar doirasidagi sud muhokamalarida ham ishtirok etish huquqiga ega bo'lib, bu uning qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi [10, B.245].

Vasiylik va homiylik instituti ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu institut orqali voyaga yetmagan shaxslarning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari himoya qilinadi, ularning ijtimoiy moslashuvi va barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Shu jihatdan, mazkur institut davlatning ijtimoiy siyosatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Demografik ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida 2023-yil boshiga doimiy aholi soni 36 milliondan ortiqni tashkil etgan bo'lib, aholining tabiiy o'sishi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, tug'ilish darajasi yuqori bo'lib, 2023-yilning dastlabki choragida 215 mingdan ortiq bola tug'ilgan, tabiiy o'sish esa 175 mingdan ziyodni tashkil etgan. Ushbu holat jamiyatda bolalar ulushining sezilarli ekanligini ko'rsatadi va ularni huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Aholining yosh tarkibi ham mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining 31,8 foizini mehnat yoshiga yetmagan shaxslar tashkil etadi. Bu esa bolalar va voyaga yetmaganlar sonining yuqoriligini anglatadi hamda ular orasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan, vasiylik va homiylik institutini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi [11, B.405-429].

Shu bilan birga, ijtimoiy jarayonlar, jumladan, nikohlar sonining kamayishi va ajrimlar sonining ortishi kabi tendensiyalar ham bolalarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda vasiylik va homiylik institutining samarali faoliyat yuritishi, bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Shu tariqa, voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomi ularning to'liq muomala layoqatiga ega emasligi bilan xarakterlanadi va bu holat ularning ishtirokidagi huquqiy munosabatlarda maxsus himoya mexanizmlarini qo'llashni taqozo etadi. Ayni paytda, hatto bolaning muayyan mol-mulkka egaligi mavjud bo'lgan taqdirda ham, huquqiy javobgarlik asosan uning qonuniy vakillari zimmasiga yuklanishi mazkur institutning o'ziga xos xususiyatini namoyon etadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, voyaga yetmagan shaxslarning mulkiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda ma'muriy-huquqiy mexanizmlar ustuvor ahamiyat kasb etayotgani, fuqarolik-huquqiy tartibga solish imkoniyatlari esa nisbatan cheklangan holda qolib ketayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, vasiylik va homiylik munosabatlarida mol-mulkni boshqarish tartibining aniq va tizimli tartibga solinmagani amaliyotda muayyan huquqiy bo'shliqlarni keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish orqali voyaga yetmaganlarning mulkiy manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilish zarurati yuzaga keladi.

Amaldagi fuqarolik qonunchiligida vasiy yoki homiy tomonidan voyaga yetmagan shaxs mol-mulkini boshqarish tartibi umumiy qoidalar bilan cheklanib qolgan bo'lib, ularda mazkur munosabatlarning o'ziga xos jihatlari yetarlicha inobatga olinmagan. Xususan, Fuqarolik kodeksida vasiy tomonidan daromadlarni tasarruf etish tartibi aniq va kompleks tarzda belgilanmaganligi amaliyotda huquqiy noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda ham voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlarini amalga oshirishda maxsus mexanizmlarni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi (A. Serebryakova) bolalarning mulkiy huquqlari kuchaytirilgan himoyaga muhtoj ekanligini qayd etadi, biroq, ularning mol-mulkini boshqarishda qo'shimcha huquqiy kafolatlarni belgilash zarurligini ko'rsatmaydi. Shu nuqtai nazardan, fuqarolik qonunchiligiga vasiy va homiy tomonidan mol-mulkni tasarruf etish tartibini aniq belgilaydigan maxsus norma kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu, bir tomondan, voyaga yetmaganlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirs, ikkinchi tomondan, huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlaydi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga quyidagi mazmundagi normani kiritish taklif etiladi:

“32¹-modda. Vasiylik va homiylikdagi voyaga yetmagan shaxsning mol-mulkini tasarruf etish Vasiy yoki homiy o'z vasiyligidagi yoki homiylikdagi shaxsning daromadlarini, shu jumladan uning mol-mulkini boshqarishdan tushgan daromadlarni faqat mazkur shaxsning manfaatlarini ko'zlab hamda vasiylik va homiylik organining dastlabki roziligi asosida tasarruf etadi, vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning o'zi mustaqil tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan hollar bundan mustasno.

Alimentlar, pensiyalar, nafaqalar, sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun to'lovlar, boquvchisini yo'qotganlik uchun nafaqa, shuningdek vasiylik yoki homiylikdagi shaxsga to'lanadigan boshqa mablag'lar vasiy yoki homiy tomonidan ochiladigan hisobvaraqda jamlanadi hamda qonunchilikda belgilangan hollarda vasiylik va homiylik organining rozilgisiz tasarruf etilishi mumkin”.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning mulkiy huquqlarini tizimli ravishda tasniflash va ularni qonunchilikda aniq ifoda etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, ularning mulk huquqi, ta'minot (aliment) olish huquqi, mulkiy talab huquqlari, meros huquqi va omonatlarga bo'lgan huquqlarini alohida guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, mazkur huquqlarni tasarruf etilishi mumkin bo'lgan va shaxs bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, ya'ni tasarruf etilishi mumkin bo'lmagan huquqlarga ajratish zarur. Ayniqsa, alimentlar, pensiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar voyaga yetmagan shaxsning ajralmas mulkiy huquqlari sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlanishi lozim.

IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Amonov Z. Mulkiy huquqlar fuqarolik huquqining obykti sifatida. Yurid.fan nomz.diss... T.: TDYUI, 2010, 10, 38 betlar.
3. Зубков С.Б. Проблемы правового регулирования имущественных прав несовершеннолетних // Закон и право. – 2007. – № 10. – С. 71.

4. Серебрякова А.А. Защита имущественных прав детей. Историческая и социально-образовательная мысль. Том 9 №2/1, 2017. С.109.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.05.2025 y., 09/25/294/0419-son.
6. Inamdjanova G.S. Voyaga yetmagan bolalarning huquqlari va ularni muhofaza qilish // Davlat va huquq jurnali. – 2001. – №3. – B. 14–16.
7. Ashurova N. Voyaga yetmaganlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki. Yurid.fan nomz.diss...avtoref. –T.: TDYUI, 2008. 11-b.
8. Matkurbanov R.J.Fuqarolik huquqida fuqarolar (jismoniy shaxslar) huquq subyektligining muammolari. T.: TDYUI, yurid.fan.dokt.diss...avtoref. 2008. 33-b.
9. Sharaxmetova U. Oilaviy huquqlarini amalga oshirishni takomillashtirish. Monografiya. 2025. 148-b.
10. Muminov A.R., Tillabayev M.A., Yuldasheva G. Bola huquqlari: darslik / mas'ul muharrir A.X. Saidov. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2019. – 410 b.
11. O'zbekiston Respublikasining demografik holati // www. Stat.uz. Demografik holat.

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2

2026-YIL